

## Shavkat Mirziyoyev Turkmanistonga ketdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan 5 avgust kuni Turkmanboshi shahriga jo'nab ketdi.

Prezidentimiz ushbu shahar yaqinidagi "Avaza" milliy sayyohlik zonasida bo'lib o'tadigan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvida ishtirok etadi.

Shuningdek, sammit doirasida ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazilishi ham ko'zda tutilgan.



**Manba**